

KONSEPT TUSHUNCHASI. “DO‘ST” SO‘ZINING PRAGMATIK ASPEKTDAGI KONTEKSTUAL MA’NOLARI

Mirvaliyeva Dildora Anvarovna

Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston

Milliy universiteti

O‘zbek filologiyasi fakulteti

Kompyuter lingvistikasi va

amaliy tilshunoslik kafedrası o‘qituvchisi

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada “konsept” atamasining nazariy asoslari, konsept haqida olimlarning turli xil mulohazalari va “Do‘st” konsepti haqida ma’lumot, uning lug‘atlardagi ma’nodoshlari, qolaversa ingliz va o‘zbek maqollarida kelishi, ushbu konseptning badiiy asarlardagi parchalar asosida tahlili haqida fikr yuritiladi.

Kalit so‘zlar: konsept, kognitiv tilshunoslik, do‘st konsepti, badiiy asar, hikmatlar, maqollar, lug‘atlar.

ABSTRACT

In this article, the theoretical foundations of the term “concept”, various opinions of scientists about the concept, and information about the concept “Friend”, its synonyms in dictionaries, as well as in English and Uzbek proverbs, the occurrence of this concept in works of art Based on the fragments, the analysis is discussed.

Keywords: concept, cognitive linguistics, friend concept, artwork, proverbs, proverbs, dictionaries.

KIRISH

Konsept atamasi tilshunoslik tadqiqotlarida XX asrning birinchi yarmidan paydo bo‘la boshladi. Bu atama ingliz tiliga oid so‘z bo‘lib, (conssept), rus tilida ponyatie (tushuncha) atamasi bilan tarjima qilinadi. Keyinchalik bu atama tushuncha atamasi bilan aralashirib yuborila boshlangach, uning tom ma’nodagi mazmunini aniq shakllantirishga qaratilgan ishlar tadqiq qilina boshlandi. Rus tilshunosligida konsept tushunchasi XX asrning birinchi choragida faylasuf S.Askoldov tomonidan ilmiy muomalaga kiritiladi. S.Askoldovning qarashicha, konseptlar vositasida turli millat vakillari muloqotga kirishadi, shunga ko‘ra, konseptlarni yaratish va idrok qilish ikki tomonlama kommunikativ jarayon hisoblanadi. Lisoniy makonda mavjud bo‘lgan

bunday tizim dunyo milliy manzarasining o'ziga xosligini belgilaydi¹. XX asrning birinchi choragida konsept haqida mulohazalarga tanqidiy yondashiladi. Faqat 80-yillarga kelib, bu terminga ehtiyoj qayta paydo bo'ladi. Yu. S. Stepanov o'zining tadqiqotlarida mental shakllanishning mohiyatini ochishga harakat qilib, konsept so'zining etimologiyasiga murojaat qiladi. Konsept lotin tilidagi *conceptus* – "tushuncha" so'zining kalkasidir. Konsept ikki tomonli xususiyatga egadir. Bir tomondan, madaniyat konsept ko'rinishida insonning mental dunyosiga kirsa, boshqa tomondan, inson konsept yordamida madaniyatga kiradi va ba'zan unga ta'sir ko'rsatadi. Inson o'zining individual, betakror madaniyatini saqlagan holda, konsept orqali xalqlarning madaniyatiga, turli millat vakillarining mental dunyosiga murojaat qiladi².

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Konseptning kognitiv tilshunoslik, lingvokulturologiya, shuningdek, adabiyotshunoslik fanlaridagi izohi o'zaro farqlanadi. Ushbu termin tilshunoslikda o'tgan asrning 80-yillariga qadar tushuncha so'ziga sinonim sifatida ishlatilgan bo'lsa, bugungi kunga kelib uning izohi tushuncha terminiga nisbatan kengayganini ko'rish mumkin. Binobarin, N.Yu. Shvedova konseptni tushuncha ekanligini, bu tushuncha ortida esa ijtimoiy yoki subyektiv tarzda anglanuvchi, inson hayotining muhim moddiy, aqliy, ruhiy tomonini aks ettiruvchi, o'z tarixiy ildizlariga ega bo'lgan, xalqning umumiy tajribasini aks ettiradigan mazmun turishini ta'kidlagan³.

Prof. N. Mahmudov lingvokulturologiyada konseptning o'rganilishi xususida shunday yozadi: "Lingvokulturologik tadqiqotlarda aynan konseptning ifodalanishi muammolariga juda katta e'tibor qaratilmoqda, internet materiallari bilan tanishganda, masalan, Rossiyadagi tilshunosliklarda bu yo'nalish nihoyatda keng tarqalganini ko'rish mumkin, bu boradagi ishlarni sanab, sanog'iga yetish mushkul. Demak, konsept lingvokulturologiyada eng faol qo'llanuvchi birlik sanaladi. Konsept lingvomadaniy birlik sifatida u yoki bu xalq madaniyatining o'ziga xos jihatlarini ifodalaydi⁴. Masalan, "do'st" konsepti o'zbek kishilarining tafakkurida quyidagicha assotsiatsiyalanadi:

¹ Асколдов С.А. Концепти и слово. - М: Академия, 1997.

² Степанов,Ю.С. Константи:Словар русской культуры/Ю.С. Stepanov.-М.:Академический проект,2004.

³ Шведова N.Yu. Избранный работы .-М,2005.

⁴ Mahmudov N. Tilning mukammal tadqiqi yo'llarini izlab.// O'zbek tili va adabiyoti.- T,2012.

- a) ikki inson o'rtasidagi yaqinlik, ahillik, inoqlik;
- b) do'st, jo'ra, o'rtoq, og'ayni, oshna, tarafdor;
- v) chin do'st, haqiqiy do'st, qiyomatli do'st, soxta do'st;

Kognitiv tilshunoslik – dunyoning lisoniy tasvirida muayyan konseptning mohiyati va dunyo voqealari bilan bog'liqligini o'rganuvchi fandır. Konsept esa kognitiv tilshunoslik fanining asosiy kategoriyalaridan biri bo'lib, madaniyat va inson o'rtasidagi aloqa o'rnatuvchi elementdir. “Konsept” termini 90- yillardan beri lingvistikada qo'llanilib kelinmoqda. Konsept tushunchasi hali hamon bitta umumiy izoh yoki talqinga ega emas. Konseptlarning o'rganilishi bo'yicha eng atoqli tilshunoslaridan biri S.A. Askoldov hisoblanadi. U konseptga “bu bir tur yoki boshqa turdagi tushunchalar haqida fikrlash jarayonini o'zida aks ettiradigan birlikdir” deb izoh bergan. Turli tilshunoslarning ilmiy ishlarini solishtirish natijasida ko'plab xususiy xulosalar qabul qilindi. Konsept tushunchasining tilshunoslikda qabul qilinganligi madaniyat, ong, tafakkur va til birligining asosiy o'ziga xosliklarini aniqlashda, lingvistikaning kulturologiya, falsafa va kognitologiya aspektlari uchun yangi bosqich bo'lib xizmat qildi. Konsept markazida qadrilik turadi, u til madaniyat tadqiqiga xizmat qiladi, madaniyat asosida aynan qadrilik prinsipi yotadi. Har bir konsept murakkab mental uyg'unligi, ma'naviy tuzilishdan tashqari insonni ifodalayotgan obyektga munosabati va umuminsoniy yoki umumiy, milliy-madaniy, ijtimoiy, til egalariga tegishli, shaxsiy-individual komponentlarni o'z ichiga oladi. Til leksikasi insoniyat madaniyatini ifodalovchi vosita sifatida dunyoning bir biridan farq qilmaydigan xalqlarida aks etgan muayyan madaniy konseptual tushunchalarni aniqlashga va mazmun mohiyatini ochib berishga yordam beradi¹.

Lug'atda konsept atamasiga quyidagicha ta'rif beriladi: “konsept bu – “so'z ma'nosi” kabi tushuncha bo'lib, faqat bog'lanishlar tizimi nuqtai nazaridan farqlanadi; ma'no-til tizimida; tushuncha ham mantiqda, ham tilshunoslikda tadqiq etiladigan mantiqiy munosabatlar va formalar tizimida bo'ladi”².

NATIJARLAR

Konsept tushunchasini turli xil soha va yo'nalishlarda uchratishimiz va har bir sohada konseptning o'z ma'no va vazifasi borligini kuzatishimiz mumkin. Jumladan, psixolingvistika, tilshunoslik, kognitiv tilshunoslik, lingvomadaniyatshunoslik sohalari nuqtai nazaridan konsept talqinlari ko'rib chiqilgan. Psixolingvistika nuqtai

¹ Yo'ldosheva Yu “Milliy madaniy konsept til semantikasi” maqolasi. T, 2021.

² Rahmatullayev Sh. O'zbek tilingning etimologik lug'ati. T.: 2010

nazaridan konsept insonning psixik hayot qonuniyatlariga bo'ysunuvchi, shaxsning bilish va muloqot jarayonida dinamik xarakterga ega. Tilshunoslikda konsept lingvokognitiv va lingvomadaniy hodisa sifatida qaraladi. Kognitiv tilshunoslik va lingvomadaniyatshunoslik fanlarining asosiy mavzusi konsept bo'lib, u tafakkur birligi sifatida millatning ma'naviy qadriyatlarini aks ettiradi. Kognitiv tilshunoslikda konsept hayotiy obraz, til birligini anglatuvchidir. Konsept orqali aniq tilni semantik oralig'i tuziladi. Konsept tabiatini tushuntirish va anglash til orqali kechadi. Konseptning o'zi tahlilsiz sistema, ammo boshqa konseptlar ostida harakat qiladi. Konsept - bir millatga tegishli bo'lgan hayotiy tajriba natijalarini o'zida namoyon qilgan bilimlar va tasavvurlar yig'indisi, inson ongidagi hayotga, borliqqa bo'lgan munosabati, bir millatning nimadir haqida o'y-fikrlar, qarashlarini o'zida mujassamlashtirgan termin. Shu bilan bir qatorda konsept xotiraning operativ birligi bo'lib, fikriy, lisoniy, konseptual tizimlar va ong tili, borliq bilimlarni o'zi chiga oladi¹.

Konsept insonni o'rab turgan olamni anglash natijasida orttirilgan bilimlar yig'indisi va tajribasida mavhum birlikni namoyon etadi. Bu qarashlar Yu.S.Stepanov xulosalarida ham keltirilgan. Uning fikricha, konsept inson ongidagi madaniyat bo'lagi, bunday holatda konsept insoniyat olamini mental birligi bo'lib madaniyatga kirgan. Konsept oddiy inson qiyofasida madaniy qadriyat yaratadi va madaniyatga kirib, ba'zi vaqtda madaniyatga ta'sir ko'rsatadi.

MUHOKAMA

Konsept haqida birmuncha ma'lumotlarga ega bo'ldik, ana endi ishimizning asosiy maqsadiga o'tsak, ya'ni "Do'st" so'zi haqida ma'lumot bersak.

"Do'st" so'ziga "O'zbek tilining o'zlashma so'zlar izohli lug'ati" da quyidagicha ta'riflar beriladi:

1. "Totuvlik munosabati bilan bog'langan" ma'nosini beradi, ma'nodoshlari: **jo'ra, oshna, o'rtoq**; Mana shu vaqtgacha jo'ralarning soni hamon o'sha - to'qqizdan ortmaydi. (A.Qahhor, "Sarob" romanidan). O'rmonjonning otasi Omon aka Sidiqjonning otasi Sohibjon aka bilan juda qalin o'rtoq edi; ikki oshna o'lib ketgandan keyin, O'rmonjon bilan Sidiqjon chinakam aka-ukaday bo'lib qolishgan edi. (A.Qahhor, "Qo'shchinor chiroqlari")

2. Tarafdor, homiy; Musulmonqulga tarafdorlaringiz bo'lsa, tinchlikcha qo'shından chiqib kestin! (A.Qodiriy, "O'tgan kunlar" romanidan). Bobur bu gal yana aldanmaslik uchun shahar ichidagi tarafdorlarining hech biriga xabar bermasdan

¹ Safarov.Sh Kognitiv tilshunoslik . Jizzax-2006

tavakkal qilib keldi.(P.Qodirov,"Yulduzli tunlar"). Mirzo Ulug'bek birgina ilmning emas, balki san'atning ham homiysi edi.(K.Yashin,"Hamza").

3.Diniy tasavvufda xudo; Allohim(xudoyim) sen meni eng yaqin do'stimsan, doim meni eshitasan, Allohim-o'zing sabr ber, to'g'ri yo'l ko'rsat.(Bolaning ollohga murojati, [https://t.me Mahzun qalblardan](https://t.me/Mahzun_qalblardan)).

O'zbek tilining ma'nodoshlik lug'atida "**Do'st**" so'zining quyidagi ma'nodoshlari berilgan: Do'st, oshna, og'ayni, jo'ra, o'rtoq, do'st-yor, ahabob, habib.

Do'st-yorlar yig'ilib, chag'ir ichib, musiqa va raqslar bilan tong orttiradilar. (Oybek, "Navoiy" romani).

Yaxshilar doim nasihat aylar o'z **ahbobiga:** ichmagil, hushyor bo'l, tushma balo girdobiga.(Voqif).

Habibim band etar ko'nglimni,
Tabibim pand etar doim.
Bilolmasman, bu savdoda,
Na sudu na zarar bo'lg'ay.(E.Vohidov)

-Ha, ishing qalay, Omon **og'ayni?**

-E,so'rama, **o'rtoq**, -dedi, -bo'kib qoldim.

-Iye, nimaga bo'kasan?

-Sen ketganingdan keyin xo'jayinning bir-ikki qur **oshnalari** mehmon bo'lib kelishdi.(G'.G'ulom,"Shum bola")

O'zbek tili so'zga boy til hisoblanadi. Har bir so'zning birdan ortiq ma'nodoshi,shakldoshi bor. Birgina "Do'st" so'zining ma'nodoshlari har bir asarlarda mohirona, hayotiy misollar orqali o'rinli keltirilgan. Baribir ularning mazmun-mohiyati bir, sinonimik munosabatdadir.

Shu bilan birga, "**O'zbek va ingliz tilidagi maqollarda "do'stlik" konsepti ifodalanishi**" masalasiga to'xtalib o'tamiz. Insonlar o'zlarining hayotida bo'lgan voqealarni o'z avlodlariga turli yo'llar bilan yetkazib berishga harakat qilishgan. Shunday narsalarni yerkazib berishda xalq og'zaki ijodi, maqollar, matallar, hikmatli so'zlar va shu kabilarning roli beqiyos sanaladi. Mana shu manbalardan biri bo'lgan maqollar ham biz uchun to'g'ri qaror qabul qilishda, har xil vaziyatlardan chiqishda yordamchi vazifasini o'taydi. Aslida maqol so'zi arab tilidan olingan bo'lib" hikmatli so'z", "otalar so'zi" kabi tarjima qilinib yuritiladi. Maqollarda barcha fikr bir umumiy ma'noga qaratiladi va har bir maqolda yashirin ma'no bo'ladi. Maqollar ham mavzu jihatdan turli xil bo'lishi mumkin. Bunday mavzular ichiga vatan, do'stlik, muhabbat, vafo, hurmat va boshqalarni keltirish mumkin. Bu kabi mavzular ingliz tilida ham,

o'zbek tilida ham uchrab turadi. Xususan do'stlik mavzusida o'zbek tilida ko'plab namunalarni uchratish mumkin. Do'stlik so'zi tor ma'noda ikki inson o'rtasidagi munosabat bo'lsa, keng ma'noda oilalar, qishloqlar, qarindoshlar va yurtlar o'rtasidagi iliq munosabatni ham bildiradi. Do'stlikdagi eng muhim fazilatlardan biri samimiylilik, rostgo'ylik, vafo va, albatta, sadoqat hisoblaniladi. Bu to'g'risida bizning tilimizda salmoqli ijod namunalari uchratish mumkin. Xususan, Alisher Navoiy do'stlikni ulug'lab, Do'stsiz insonni qurigan daraxtga, joni yo'q tuproqqa tenglagan. Do'stlik shunday ne'matki, u insonni ruhan va jismonan kamolotga boshlaydi. Do'stlik ham ikki xil ko'rinishda bo'ladi; biri chin do'stlik bo'lsa, ikkinchisi yolg'on do'stlik ya'ni qandaydir manfaat yuzasidangina qurilgan rishta sanaladi. Ingliz va o'zbek tillaridagi maqollarda bir- biriga yaqin bo'lgan do'stlik to'g'risidagi maqollarni topish mumkin. Bu ikki til maydon jihatdan, kelib chiqish jihatidan umuman aloqador emas, xatto, tilshunoslik tomondan ham ingliz tili analitik til guruhiga o'zbek tili aglutinativ til guruhiga kiradi. Ammo maqollar va iboralarda ma'nosi bir xil bo'lgan jihatlar, umumiyliklarni ko'rish mumkin.

A good friend is my nearest relation- Yaxshi do'st uzoq qarindoshdan yaxshi. Ushbu maqolda ham aynan bir xil bo'lmasa ham ma'no yaxlitligi bor. Bu maqol orqali mehirsiz qarindoshlardan bittagina sodiq do'st yaxshi degan ma'no namoyon bo'ladi.

The best mirror is my old friend - Do'st do'stning oynasi. Darhaqiqat, do'stlar bir- birini ko'zgidir. Kamchiliklarni yashirish, ularni to'g'rilash, yaxshi kunda xursand bo'lish- bu albatta chin do'stlik nishonasidir.

A man is known by the company he keeps. - Do'sting kimligini ayt, sening kimligingni aytaman. Ushbu maqollarda insonning fazilatlari uning qanday do'stlari borligi bilan belgilanadi, deyilgan. Semantik nuqtai nazardan, bu ikkita maqol bir- biriga o'xshab ko'rinadi, ammo ularning pragmatik xususiyatlari har xil: inglizcha maqol odatda ko'proq rasmiy va adabiy uslublarda ishlatiladi, o'z navbatida o'zbekcha maqol asosan og'zaki nutqda qo'llaniladi.

There is no better looking-glass than an old friend. / The eye of a friend is a good mirror. - Do'st achitib gapirar, dushman kuldirib (Do'st achchiq (haqiqat), dushman shirin (yolg'on) aytadi). Ushbu maqollarda aytadiki, haqiqiy do'st haqiqatni senga ham yoqmaydi, hatto u senga yoqmaydi va ular senga xatolaringni yoki yomon xulqingni aytib berishlari kerak, dushmanlar esa yoqish yoki zaif tomoningni topish uchun sizni shirin so'zlar bilan aldashadi. Ushbu ikkala ingliz maqolida oyna (= looking-glass) leksemasi ishlatilgan.

A friend in court is better than a penny in purse. - Boylik boylik emas, birlik boylik (Boylik boylik emas, birdamlik boylik). Ushbu maqollarning asosiy ma'nosi do'stlik puldan ko'ra qimmatroq yoki zarurroq, bu haqiqiy boylik ekanligini anglatadi.

"Penny" madaniyatining mavjudligi uning ingliz millatiga mansubligini isbotlaydi. Ingliz madaniyati do'stlikni valyuta bilan taqqoslaydi va do'stlar tinlardan yaxshiroq deb aytadi; do'st bo'lish o'zbek boyligidagi haqiqiy boylikka tenglashtiriladi.

It is good to have some friends both in heaven and hell. - Do'sting yoningda bo'lsa, ishing oson bitadi (Do'stingiz yoningizda bo'lsa, muammoingizni tezda hal qilasiz). Inglizcha maqol "Jannat" va "do'zax" madaniyati tufayli kuchli ekspresivlik va ta'sirchanlikka ega, shu bilan birga ular diniy so'zlar va semantik qarama-qarshiliklar (antonimlar). Ushbu so'zlarning mavjudligi ushbu maqolning lingvokultural va pragmatik xususiyatlarini anglatadi. O'zbek tilidagi maqol ingliz tiliga nisbatan majoziy ma'noga nisbatan sodda tuzilishga va so'zma-so'z ma'noga ega. Xulosa qilish kerakki, maqollar ingliz va o'zbek tillarining juda ko'p qismlarini tashkil etadi. Ular bir-biridan semantik, strukturaviy, stilistik va hatto pragmatik jihatdan farq qiladi. Maqollar millat madaniyatining ko'plab kamchiliklarini qamrab oladi. Maqollar mavjud bo'lgan til madaniyatini tavsiflash, aniqlash va ifodalashga xizmat qiladi. Tilning paremiologik fondida milliy tushunchalar, narsalar, hissiyotlar, urf-odatlar, taniqli ajdodlar, hatto joy nomlari - madaniy nuqtalarni ko'rish mumkin. "Do'stlik" tushunchasi bilan bog'langan ingliz va o'zbek maqollari millatning mentaliteti, madaniyati va urf-odatlarini aks ettiradi va ushbu millat tilida muhim o'rin tutadi. Yuqoridagi tahlillar shuni ko'rsatdiki, ingliz va o'zbek tillari ham juda maqollarga boy hisoblanadi. Har bir til alohida bo'lgani bilan uning tarbiyaviy ahamiyati bir xil bo'ladi.

"Do'st" konseptining o'zbek xalq maqollarida ham keng qo'llanilib kelinmoqda:

Maqollar

Do'st-do'stning oynasi.

Do'st ziyonkor bo'lmas,

Ziyonkor do'st bo'lmas.

Do'st yig'latar, dushman kuldirar.

Do'st so'zini tashlama,

Tashlab boshing qashlama.

Do'st uzoqda bo'lsa ham, ko'ngli yaqin.

Do‘stga aytdim so‘zimni,
Dushman bildi sirimni.

Do‘sting bo‘lsa, bog‘ing chamandur,
Do‘sting bo‘lmagani feling yomondir.

Do‘stni og‘ritsang, dushman shod bo‘lar.

Do‘stning ko‘ngli qolguncha,
Dushmanning bo‘yni uzilsin.

Do‘stsiz boshim-tuzsiz oshim.

Ish bilganni oqil deydilar,
Do‘stlikni uzganni qotil deydilar

Aybsiz do‘st izlagan do‘stsiz qolar.

Arpa-bug‘doy bir kunninga yaraydi,
Sodiq do‘sting o‘lguningchcha yaraydi.

Baliq suvsiz yashamas,
Inson do‘stsiz.

Ginali do‘st-adovatli dushman.

Daraxt ildizi bilan,
Odam-do‘stlari bilan.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa qilib shun aytish mumkinki, “Konsept”- bir millatga tegishli bo‘lgan hayotiy tajriba natijalarini o‘zida namoyon qilgan bilimlar va tasavvurlar yig‘indisi, inson ongidagi hayotga, borliqqa bo‘lgan munosabati, bir millatning nimadir haqida o‘y-fikrlar, qarashlarini o‘zida mujassamlashtirgan termin. Shu bilan bir qatorda

konsept xotiraning operativ birligi bo‘lib, fikriy, lisoniy, konseptual tizimlar va ong tili, borliq bilimlarni o‘z ichiga oladi¹.

Konsept insonni o‘rab turgan olamni anglash natijasida orttirilgan bilimlar yig‘indisi va tajribasida mavhum birlikni namoyon etadi. Xususan, “Do‘st” konsepti orqali o‘zbek tilining naqadar so‘zga boyligini ko‘rishimiz mumkin. Bir so‘zning bir nechta sinonimi borligi, ularni har birining qo‘llanilish o‘rni va boshqa tillarda berilsa ham ma‘noviy umumiylik borligini yaqqol sezishimiz mumkin. Ayniqsa xalq og‘zaki ijodi mahsuli bo‘lmish maqollarda ham do‘st so‘ziga ibrotomus izohlar, tarbiyaviy ahamiyatga ega bo‘lgan tushunchalar orqali ko‘rsatib berilgan. Demak, ma‘lum bir konsept orqali biz aniq tushunchaga ega bo‘lamiz, shu so‘z sinonimlarining har birini qaysi o‘rinda, qaysi vaziyatda qo‘llashni va albatta shu tushunchaning maqollarda, hikmatli so‘zlarda berilishi natijasida axloqiy tarbiya olishimiz mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI: (REFERENCES)

1. Abdulla Qodiriy. O‘tgan kunlar “Sharq”. Toshkent-2000.
2. Асколдов С.А, Концепти и слово. - М: Академия, 1997.
3. Mahmudov N. Tilning mukammal tadqiqi yo‘llarini izlab.// O‘zbek tili va adabiyoti.- T,2012.
4. Oybek. Navoiy. Sharq”. Toshkent-2004.
5. Pirmuqol Qodirov. Yulduzli tunlar.”Sharq”. Toshkent-2018.
6. Safarov. Sh Kognitiv tilshunoslik . Jizzax-2006.
7. Степанов, Ю.С. Константи: Словар русской культуры/Ю.С. Степанов.- М.: Академический проект, 2004.
8. Yorqinoy Hamroyeva “O‘zbek tilining o‘zlashma so‘zlar o‘quv izohli lug‘ati” Toshkent, “Yangi asr avlodi” 2007.
9. Yo‘ldosheva Yu. “Milliy madaniy konsept til semantikasi” maqolasi. T, 2021.
10. O‘zbek xalq maqollari. “Sharq”, Toshkent, 2005.
11. Shukrullayeva G. O‘zbek va ingliz xalq maqollarida do‘stlik tushunchasi masalalari. Maqola. Qarshi d.u, 2021.
12. Шведова Н. Ю. Избранный работы .- М, 2005.

¹ Safarov. Sh Kognitiv tilshunoslik . Jizzax-2006